

## **BOSHLANG'ICH SINIF FANLARINI INTEGRATSIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI**

*Yoqubjonova Go`zalxon Xasanboy qizi*

*QDPI Boshlang`ich ta`lim metodikasi kafedrasida o`qituvchisi*

*Akramxo`jayeva Gulira`no Axrorxo`ja qizi*

*QDPI Boshlang`ich ta`lim fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Integratsiya o`qituvchilarning turli fanlar bo`yicha kuzatishlari va xulosalarini tasdiqlab yoki chuqurlashtirib beruvchi yangi dalillarni topib berish manbaidir. Ular faoliyatning turli shakllarining almashib turishi orqali o`quvchilarning charchashi va asabiylashishini oldini oladi.

**Kalit so`zlar:** Ta`lim, integratsiya, metod, metodika, integratsiyalashgan darslar, ta`lim va tarbiya, pedagogik texnologiyalar.

Ilm-fan yutuqlari va ularning insonlar hayotidagi o`rni rivojlangan mamlakatlar maktab ta`limi mazmuni va strukturasi ta`sir o`tkazmay qolmaydi. Mamlakatimizda ta`lim sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida o`quv soatlari keskin qisqartirildi, o`quv materiallari mazmuni modernizatsiya qilindi. Bilimning integratsiyalashgan (ko`rgazmali) tarmog`ida integratsiyalashning usul va vositalari: ta`lim rejasidagi o`qitish joyida: vaqtning hajmiga qarab shu kursni to`la o`zlashtirish vaqti o`quvchilarning o`zlashtirish darajasi: ko`p maqsadli va rang-barangligi hamda ko`p funksiyaga egaligi bilan tavsiflanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangi o`quv rejalari va dasturlariga o`tish davrida jamiyat va atrof-muhit o`rtasidagi aloqalarni uyg`unlashtirish, atrof - muhitga jiddiy munosabatni o`rnatish va shakllantirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Atrof-muhitga jiddiy munosabatlarning poydevori boshlang`ich sinflarda o`rgatiladi. Shuning uchun iqtisodiy ta`limning natijasi maktab ta`limning birinchi bosqichiga bog`liq. Yangi

psixologik - pedagogik tadqiqotlar kichik yoshdagi maktab o`quvchilarining bilish faoliyatlari cheklanganligi haqida ilgari tushunchalarni ko`rib chiqishga imkon beradi. Bu boshlang`ich iqtisodiy ta`limning barcha tarkibiy qismlarini o`zgartirish va yangilashga asos yaratadi. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining yosh xususiyatlariga javob beradigan va dars talablariga mos keladigan, maqsadni aniqlash bunday yangilanishning asosiy masalasidir. XIX-XX asrlar oralig`ida pedagogikada kichik maktab o`quvchilarining tabiiy muhit bilan tanishtirishning integratsiyalangan kursini yaratish fikri paydo bo`lgan. Bu fikr A.Ya.Gerd, D.N.Kaygorodov, A.P.Pavlov nomlari bilan bog`liq bo`lib, ular boshlang`ich maktabga atrofdagi jonli va jonsiz dunyo haqidagi bo`linmagan kursni kirgizishni talab qilishdi. Integratsiyalashgan ta`lim-tarbiya, fanlararo aloqalarning ayrim jihatlari mashhur pedagoglarning (Ya.Komenskiy , D.Lokk, I.Gerbert, M.Pestalotstsi, K.Ushinskiy va boshqalar), didaktiklarning (I.D.Zverev, M.A.Danilov, V.N. Maksimova, S.P.Baranova, N.M.Katkina va boshqalar) psixolog olimlarning E.N.Kabanova, Meller, N.F.Talizina, Yu.A.Samarina, G.I.Vergeles), medist olimlarning (M.R.Lg`vov, V.G.Goretskiy, N.N.Svetlovskaya. Yu.M. Kolg`yagin, G.N.Pristupova ) ishlarida ko`rib chiqilgan. Bir qator ishlar boshlang`ich ta`limdagi fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarga bag`ishlangan. Bu muammolar o`quv fanlarinn integratsiyalashga o`tishning yaqin rivojlanish zonasidir. (T.G.Raizaeva., G.N.Akvileva, D.I.Troytap, G.V. Balg`tyukova, N.Ya. Velenkin, N.M.Drujnina , T.S.Nazarova , I.K. Blinova , R.G.Matyushova ). Boshlang`ich maktab fanlarining integratsion aloqalari kam ishlab chiqilgan, qarama-qarshi ifodalangan. Bu aloqalarning mohiyati haqida olimlar orasida qarama -qarshiliklar ko`p. Integratsiya atama va uslubiy nuqtaiy nazardan hodisa sifatida nima ekanligani ko`rib chiqaylik.

«Intergratsiya» so`zi lotincha integratio -tiklash, to`ldirish, «integer» butun so`zidan kelib chiqqan. Ikkita tushunchaga egamiz:

1. Tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog`liqlik xolatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon.

2. Tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

Differentsiatsiya - frantsuzcha (diffe'rentiofion lotincha differentia - farq, har xillik, ya'ni butunni bo'laklarga bo'lish, ajratish. Ta'lim mazmunini intergratsiyalash - dunyo tendentsiyasi (g'oya, fikr, intilish). Integrativ yondoshishi turli darajadagi tizimli aloqalarning obyektiv yaxlitligini aks ettiradi. (tabiat- jamiyat - inson). Integratsiya ilgari bo'lingan qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog'liq. U tizim elementlarining yaxlitlik va uyushqoqlik darajasining oshirishga olib keladi<sup>1</sup>.

Integratsiyalash mobaynida bir-biriga bog'liqlik hajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarning ishlashi va o'rganish obyektining yaxlitligi tartibga solinadi. Bu umumiy qoidalarni qanday qilib maktab ta'limida qo'llash mumkin? Zamonaviy didaktik va metodikada ta'kidlanishicha, o'quvchilarni o'qitish, rivojlanishi va tarbiyasining muvaffa qiyatlari ularning dunyoning birligi haqida tushunchaning shakllanganligi, o'z faoliyatlarini umumiy tabiat qonunlari asosida yo'lga solish zaruriyatini tushunishlari, tabiatshunoslik kursida predmetlararo va predmetlar ichidagi aloqalarni yecha olishlari bilan bog'liq. Ta'limdagi integratsiya o'quv predmetlari mazmunini konstruktsiyalashga tizimli yondoshish orqali ko'rib chiqiladi. Integratsiyaning turli darajalari ajratiladi: boshlang'ich, tabiat haqidagi elementlar bilimlarni birlashtiradi; oraliq - predmetlar bo'limlarini bo'lish intergratsiyasi; yakuniy - tabiatshunoslikni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan ta'limning oxirgi bosqichi integratsiyasi. Shu bilan birga tabiiy - ilmiy ta'limni to'liqroq va kengroq integratsiyalash imkoniyati ham inkor etilmaydi. Maktab ta'limini integratsiyalash jarayonining psixologik asosi sifatida psixolog Yu.A. Samarinning assotsiativ tafakkur to'g'risidagi fikrlari olinishi mumkin. Bu fikrlarni mazmuni shundaki, har qanday bilim bu o'xshatish, bilimlar tizimi esa o'xshatishlar tizimidir. Yu.A. Samarin

---

<sup>1</sup> R.Mavlonova. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. – Toshkent: Voris-nashriyot, 2013. – 240 b. N. Jo'rayeva. Boshlang'ich sinflarda darslarni integratsiyalash texnologiyasi. // Qarshi: 2013. – 94 b. R. Mavlonova. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. – Toshkent: ilm-ziyo,2009. – 192 b.

o`xshatishlarning quyidagi turlarini ajratadi: lokal (mahalliy, ma`lum bir joy, narsa bilan chegaralangan), biror tizimga tegishli bo`lgan, tizim ichidagi, tizilar orasidagi va aqliy faoliyat darajalarini o`xshatishlarining mos keladigan darajasiga birlashtirish xususiyatiga qarab tasniflaydi). Tabiat yoki predmet haqidagi eng oddiy bilimlarni hosil qiluvchi bog`liqlikning eng soddasi ma`lum bir joy yoki tushuncha bilan chegaralangan lokal tasavvurdir. Bu bog`liqlik boshqa bilimlardan nisbatan ajralgan, shuning uchun eng oddiy aqliy faoliyatni ta`minlaydi. Bu kichik maktab yoshiga xos. Biror bir tizimga tegishli bo`lgan tasavvurlar eng sodda tizimli tasavvurlardir. Ular biror bir mavzu, predmet yoki hodisani o`rganishi asosida hosil bo`ladi. Biror bir predmetni bilish yangi fakt va tushunchalarning tanlanishi ularni bir bilimlar bilan taqqoslanishi orqali amalga oshiriladi. Bilimlarning eng oddiy umumlashtirish sodir bo`ladi, lekin olingan bilim hamma unga yaqin bo`lgan bilimlar bilan bog`lansa edi. Bunda o`quvchilarning tahlil qilish va umumlashtirish faoliyatlari vujudga keladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirhojiddinova, J. D., Shavkatovna, A. M., & Alijonova, M. D. (2022). Lingupoetic Features Of Unconventional Combinations And Agricultural Terms In Literary Texts. *Journal of Positive School Psychology*, 6(11), 1599-1604.
2. Abdulxayeva, M. (2023). ONA TILI VA O`QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA DIDAKTIK METODLARNING TUTGAN O`RNI. Scienceweb academic papers collection.
3. Musharafa, A. (2023). Relationship of Mother Language and Reading Literacy with Natural Science. *World of Science: Journal on Modern Research Methodologies*, 2(3), 78-82.
4. Abdulxayeva, M. The Role of Dictations in the Development of Students' Written Speech in the First Class. *International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology*.
5. Abdulxayeva, M. (2023). O`Z DIKTANT YOKI YODDAN YOZUV DIKTANTI. *Interpretation and researches*, 1(1).
6. Abdulxayeva, M. (2023). AKTdan foydalangan holda diktant olish metodikasi. Scienceweb academic papers collection.
7. Musharraf, A. (2023). EDUCATIONAL DICTATION AND ITS TYPES. *Open Access Repository*, 9(6), 211-216.

8. Abdulhayeva, M. (2023). EDUCATIONAL DICTATION AND ITS TYPES. NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX-A Multidisciplinary Peer ReviewedJournal.
9. Yigitaliyevich, A. U. (2022). SECOND IN ORDER PARAMETERIZED PRIVATE DERIVATIVE DIFFERENTIAL EQUATIONS. Open Access Repository, 8(12), 489-498.
10. Isaboyeva, D. (2023). THE ROLE OF THE NATIONAL IDEA AND IDEOLOGY IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION. Science and innovation in the education system, 2(12), 133-137.
11. Alijonovna, M. D., & Gozalkhan, Y. (2022). IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARITY IN THE TEACHING OF READING AND NATURAL SCIENCES. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 1628-1632.
12. Go'zalkhan, Y. (2023). METHODOLOGY OF TEACHING SCIENCE IN PRIMARY GRADES. Conferencea, 18-21.
13. Sabirjankizi, M. S., Salimovna, V. M., Abramovich, R. Z., & Rakhmonovna, N. G. (2022). WOMEN'S AND YOUTH EMPLOYMENT AS AN URGENT PROBLEM OF SOCIAL PEDAGOGY. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(7).
14. Alijonovna, M. D., & Gozalkhan, Y. (2022). IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARITY IN THE TEACHING OF READING AND NATURAL SCIENCES. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 1628-1632.
15. Alijonovna, M. D. (2023). Terms-language wealth. INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION, 2(3), 58-62.
16. Dilafruz, M. (2022). BOUNDARY ISSUE IN THE TERMINO
17. Alijonovna, M. D. (2022). THE ROLE OF TERMS IN LINGUISTICS. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 9, 144-152.
18. Shavkatovna, A. M. (2023). G'AYRIODATIY BIRIKMALARNING BADIY MATNDA LINGVOPOETIK AKTUALLASHUVI. Journal of Integrated Education and Research, 2(3), 129-132.
19. Shavkatovna, A. M. (2023). Morphological Characteristics of Unusual Compounds Found in Literary Text. World of Science: Journal on Modern Research Methodologies, 2(3), 83-88.
20. Shavkatovna, A. M. (2023). Morphological Characteristics of Unusual Compounds Found in Literary Text. World of Science: Journal on Modern Research Methodologies, 2(3), 83-88.
21. Shavkatovna, A. M., & Sultonova, Y. N. (2023). BADIY MATN LINGVOPOETIKASIDA GAYRIODATIY BIRIKMALARNING AHAMIYATI. Ustozlar uchun, 15(1), 271-276.